O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi: № 60310100 2024 yil “10” 03		**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil “__” _____

GEOSIYOSAT
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi:	310 000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60310100- Siyosatshunoslik

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro‘yxatga kiruvchi **George Washington University, Washington D.C., 32 (75.8)**ta’lim dasturi asosida tayyorlandi.
https://gspm.gwu.edu/sites/g/files/zaxdzs5061/files/downloads/PMGT%206401.010%20Fundamentals%20of%20Political%20Mgt%20-%20Cornfield.pdf

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
GEO1310	2025-2026	3-4	10
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy fan	O'zbek		4 soat

1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Geosiyosat	130	170	300

II Fanning maqsadi (FM)

I.Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad –talabalarga geosiyosat qonuniyatlari, uning kategoriyalari haqida ma'lumot berish, talabalarga zamonaviy ilmiy qarashlarni shakllantirish, jahonda va Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan jarayonlarni tizimli va kompleks ravishda tahlil qilish ko'nikmasini yaratishdan iborat.

O'quv fanining vazifasi:

2 Fanning vazifalari - geosiyosat asoslarining mazmun-mohiyati, uslublari, vazifalari bilan tanishtirish, geosiyosiy jarayonlarning mohiyati, tarkibi, qonuniyatlarini ko'rsatib berish, muayyan geografik makon ustidan nazorat o'rnatishning turlari, shakllari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ko'rsatib berish, Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan geosiyosiy ta'limotlarning tadrijini ko'rsatib berish, yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan yondashuvlarini ochib berish, geosiyosiy jarayonlarning amalga oshirilishida axborot-mafkuraviy xurujlarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Fan mazmuni	
II. Asosiynazariyqism (ma'ruzamashg'ulotlari)	
II.IFantarkibigaquyidagimavzularkiradi:	
3-semestr Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (38)	
M1	**"Geosiyosat asoslari" fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari** «Geosiyosat asoslari» fan va siyosiy amliyot sifatida. «Geosiyosat asoslari» ning fan sifatida shakllanishi. «Geosiyosat asoslari» tushunchasi va uning asosiy aspektlari. Fanning predmeti va tadqiqot doirasi. Geosiyosat asoslari siyosiy jarayonlar va erga bo'lgan munosabatlar haqidagi, siyosatning «geografik aqli» sifatidagi fan. Geosiyosat asoslarining vujulga kelishiga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj. Gelpolitikaning fan sifatida o'rganila boshlanishi. R.Chillen va F.Ratsel ta'limotlari. «Geosiyosat asoslari» ning asosiy manbalari. Geosiyosat asoslarining shakllanishidagi ilmiy yondashuvlar: tsivilizatsion (N.Danilevchkiy, K.Leontev, O.Shpengler va boshqalar), harbiy-strategik (N.Makiavelli, K. fon Klauzevits, X.Moltke va boshqalar) va geografik diterminizm (Arastu, J.Voden, Sh.Monteske va boshqalar). «Geosiyosat asoslari» va politologik fanlarning o'zaro aloqasi va o'ziga xos xususiyatlari.
M2	**«Geosiyosat asoslari» ning kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funktsiyalari** Geosiyosat asoslarining asosiy tushunchalari: geografik makon, endemik maydon, chegaraoldi maydon, chorraha maydon, total maydon, metapole. Geosiy munosabatlar va kuchlar balansi. Siyosiy maydon davlat mavjudligining muhim belgisi. Geosiyosat asoslarining asosiy qonunlari. Siyosiy, iqtisodiy, sotsial, geografik tizimlar rivoji, amal kilishi bilan bog'liq qonuniyatlar. Geosiyosat asoslarining asosiy metodlari: sistemalik, taqqoslash, tarixiylik, aksiologik-normativ, funktsional, institutsonal, antropologik, va boshqalar. Geosiyosatning asosiy funktsiyalari: gnoseologik funktsiya; prognoz qilish funktsiyasi; boshqaruv funktsiyasi; mafkuraviy funktsiya.
M3	**Klassik geosiyosatning asosiy g'oyalari va tamoyillari** F.Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari. R.Chellen «Geosiyosat asoslari» atamasining asoschisi. Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari.X.Makinder tomonidan jahon siyosiy tarixining original va inqilobiy g'oyasining ishlab chiqilishi– «Tarixning geografik o'zagi». Xartlend nazariyasi va «Katta o'yin» kontseptsiyasining ishlab chiqilishi. K.Xausxofer – hayotiy borliq. F.Naumann kontseptsiyalari. A.Mexen tomonidan dengiz kuchlarining qudrati (ishlab chiqarish, savdo, mustamlakalar bosib olish) maxsus ta'limot sifatida ishlab chiqilishi. Spikmen tomonidan davlat qudratini aniqlab beruvchi omillar belgilabberiladi: davlat maydonining ustki qismi; davlat chegaralarining tabiati; davlat aholisining miqdori; davlatda kerakli xom-ashyo zahiralarining borligi yoki ularga ega bo'lmasligi va boshqalar.
M4	**Hokimiyatning taqsimlanishi: siyosiy xaritaning tuzilishi va rivojlanishi.** Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat. Federal, shtat va mahalliy hukumatlarning vakolatlari va majburiyatlari. Bir palatali va ikki palatali parlament. Konfederal hukumatda rotatsion raislik yoki a'zo davlatlar vakillari kengashi.
M5	**Jahon siyosatida tahlil qilish sohalari.** Davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi. Hududiy nizolar va strategik joylashuvlarni ko'rish uchun geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalanish. Tabiiy resurslarning geografik taqsimoti va uning jahon siyosatiga ta'siri. Davlatlarning kuch va xavfsizlik manfaatlariga asoslangan xatti-harakatlarini tahlil qilish. Iqtisodiy globallashuv va savdo kelishuvlarining ta'siri. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlar. Pandemiyaning global siyosat va iqtisodiyotga ta'siri.
M6	**Yevrosiyo harakati vaRossiyadagi geosiyosiy oqimlar va maktablar** Rossiyadagi geopolitik maktablarva oqimlar. Evrosiyo harakatining shakllanishi va tarqalishi: N.S. Trubetskoy, P.N. Savitskiy, G.V. Florovskiy

	va P.P. Suvchinskiy. XX asrning 60-yillarida L.N.Gumelev tomonidan evrosiyo harakatining qayta tiklanishi. Yevrosiyo harakatining tarixiy ildizlari. Rus provaslav va Vizantiya madaniyatining himochisi sifatida-Uchinchi Rim. Yevrosiyo harakati va slavyan madaniyati. N. Danilevskiy ta'limotida evrotsentrizm va politsentrizm g'oyalari. Geopolitik nazariyada «rivojlanish joyi» tushunchasi-Rossiya Evropa ham, Osiyo ham emas naqli sifatida. P.Savitskiy qarashlarida geografik makon tushunchasi. Evrosiyo o'ziga xos geografik dunyo sifatida. Rus davlatchiligi tarixshunosligining asosiy kontseptsiyalari: Kiev Rusi va Oltin O'rda. Petr I islohotlari va uning evrosiyo an'analariga zidligi.
M7	**Yangi davr geosiyosiy nazariyalari va maktablari** Ikkinchi jahon urushi yakunlarini Evropa davlatlari mavqeiga ta'siri. Evropani birlashtirish g'oyasining ob'ektiv zaruriyatga aylanishi. Sh. de Gol va Gollizm. Atlantizm. Rimland va Xartlend nazariyasidan regional geopolitikaga o'tishda I.Lakostom ta'limoti. Evropada geopolitik nazariyalar rivojining asosiy yo'nalishlari: atlantizm, mondializm, amaliy geopolitika, «yangi o'nglar» oqimi. Atlantizm va mondializm g'oyalari.
M8	**Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiy bilimlar va harakatlar** O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar. Dovon-Xitoy munosabatlari. Buyuk ipak yo'li. Kushon. Qang'-Shimoliy savdo yo'li. Farobiy «Fozil odamlar shahri» asari. Beruniyning «Hindiston» asarida geografik diterminizm masalalari. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Turon-Eron munosabatlari. «Dastur ul-muluk», A.Navoiyning «Sad'iy Iskandariy» dostonidagi geosiyosiy qarashlar. Geosiyosiy bilimlar rivojida «Temur tuzuklari» asarini o'rni.
M9	**XVI-XIX asrlarda vujudga kelgan geosiyosiy bilimlar va harakatlar** Shayboniylar davlatining tashkil topishi. Xalqaro munosabatlar tizimida Xuroson muammosi. Shayboniylar-Safaviylar, Shayboniylar-Boburiylar, Qo'qon-Xitoy munosabatlari. Markaziy Osiyoning jahon bozoridan uzilib qolishi va uning oqibatlari. Xonliklar va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari. Cherkasskiy, Buxgolts, Beneveni, Xoxlov elchiliklari va ulardan ko'zlangan geosiyosiy maqsadlar. Ma'rifatparvarlik harakati. Ogohiy «Qasidai nasihat» asari. A.Donishning «Tarixiy risola» asari. Rus istilosi. Jadidchilik harakatining g'oyaviy-siyosiy yo'li.
M10	**«Katta o'yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati (1-bosqich)** O'rta Osiyoda Angliya va Rossiya manfaatlari doirasining to'qnashuvi va uning asosiy sabbalari. Markaziy Osiyo xonliklarida elchilik munosabatlari. Rus va ingliz ayg'oqchilik ishlari.

	Ingliz ekspeditsiyalari: Murkford va A.Byorns elchiligi. 1839 yilgi Angliya-Afg'oniston urushi. Ruslarning 1839 yilgi Xivaga yurishi. Rossiya tomonidan Raim va Kopal qal'alarining barpo etilishi. Hirotda inglizlar qarorgohi tashkil etilishi. Roulson elchiligi. O'rta Osiyodagi manfaatlar doirasini belgilashda Angliya-Rossiya bitimi.
M11	**Jahon siyosatining geografik omillari.** Geografik to'siqlar va imkoniyatlar. Tog'lar, daryolar va cho'llarning siyosiy chegaralar va ziddiyatlarga ta'siri. Orollar va yarim orollarning geosiyosiy ahamiyati. Geografik sharoitlardagi o'zgarishlar (masalan, iqlim o'zgarishi, yangi manbalar kashfiyoti) global siyosatga ta'siri. Ekologik o'zgarishlarning (dengiz sathining ko'tarilishi, cho'llanish) geosiyosiy dinamikaga ta'siri. Urbanizatsiya tendensiyalari va ularning siyosiy va iqtisodiy tizimlarga ta'siri.
M12	**Geosiyosiy tizimlar** Ko'p qutbli tizim. Diplomatik sa'y-harakatlarning global boshqaruv va nizolarni hal qilishga ta'siri. Global mojarolarni hal qilishda diplomatik harakatlar samaradorligi. Hukmron hokimiyatning strategik manfaatlari va ustuvorliklari. Global kuch va ta'sir.
M13	**Geografiya: hokimiyat ambitsiyalarining salohiyati va chegaralari** Asosiy geografik nuqtalarda yoki chorrahalarda joylashgan davlatlar (masalan, Suvaysh kanali, Malakka bo'g'ozi) global savdo yo'llari va strategik harbiy harakatlarga sezilarli ta'siri. Ko'p tabiiy resurslarga (masalan, neft, minerallar, chuchuk suv) ega mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy kuch uchun o'z resurslaridan foydalanishlari. Asosiy dengiz yo'llarini nazorat qiluvchi davlatlar. Turkiyaning Yevropa va Yaqin Sharq o'rtasidagi pozitsiyasi. Buyuk davlatlarning yuksalishi va qulashida geografik omillarning ta'siri.
M14	**Geosiyosiy bilimlar rivojida Birinchi Prezident I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining nazariy-metodologik ahamiyati** Ikki qutbli dunyoning barham topishi, «sovuq urush» ning tugashi. Dknyoning yangi siyosiy xaritasi. Yangi ming yillik arafasida o'z echimini topmayotgan muammolar. Endilikda xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin? Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidan rivojlanishga nimalar xisobiga erishish mumkin. Muammoga yondashuv uslublari: tarixiylik va mantiqiylik, izchillik, makon va zamon va boshqalar. Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar. Mintaqaviy mojaro mohiyati va O'zbekistonning geosiy manfaatiga zidligi. Geosiy va etnik asosdagi tahdidlar va ularning echimi bilan bilan bog'liq taklif va xulosalar. Barqarorlik shartlari: ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashni tiklanishi, davlatning mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi, institutsional o'zgarishlar. Taraqqiyot kafolatlari: mamlakatning geografik imkoniyatlari, inson salohiyati, jahon hamjamiyati bilan xamkorlikning yo'lga quyilishi.

M15	**Jahon tartibi geosiyosatining dinamikasi (xaritalarda)** Strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy hududlar. Xitoyning Osiyo, Afrika va Yevropa bo‘ylab strategik investitsiyalar va infratuzilma loyihalari. Geosiyosiy keskinlik yuqori bo‘lgan hududlar. Asosiy global savdo va yuk tashish yo'llari. Harbiy ittifoqlar (masalan, NATO, SEATO) va xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT, Yevropa Ittifoqi). BMT Xavfsizlik Kengashida doimiy o‘rinlarga ega bo‘lgan mamlakatlar.
M16	**Kuch proyeksiyasi (J. Xerbst nazariyasi)** Xerbst nazariyasining asosiy tushunchalari. davlatning hokimiyatni loyihalash qobiliyati uning ma'muriy, harbiy va iqtisodiy resurslari bilan chambarchas bog'liqligi. Herbstning turli davlatlar o'zlarining geografik kontekstlari asosida quvvat proektsiyasini qanday boshqarganligini (yoki boshqara olmaganini) ko'rsatish uchun tarixiy va qiyosiy tahlili. Davlatning hokimiyatni loyihalash va o'z hududi ustidan nazoratni saqlab turish qobiliyati. Turli geografik o'lcham va konfiguratsiyaga ega bo'lgan shtatlarni quvvatni prognozlash va boshqarish samaradorligi.
M17	**Jahon siyosati va texnopolitika davri** Raqamli diplomatiya va kiberxavfsizlik. Maxfiylik, ma'lumotlarga egalik qilish va kuzatuv bilan bog'liq masalalar. Ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikri va xalqaro munosabatlar. Kiberhujumlar milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri. 5G texnologiyasi va sun'iy intellekt imkoniyatlari bo'yicha raqobat xalqaro munosabatlarning muhim jihati. Twitter va Facebook kabi platformalarning butun dunyo bo'ylab saylovlar va siyosiy munozaralarga ta'siri.
M18	**“Xaos” geopolitikasi: hokimiyatning tarqalishi va siyosiy xaritaning parchalanishi.** Dunyoning bir qutbli yoki bipolyar tizimdan ko'p qutbli tizimga o'tishi. Mintaqaviy mojarolarning parchalanish va mahalliy hokimiyat uchun kurashlarga olib kelishi. Transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar va ekstremistik guruhlarning kuchayishi. Kiber qobiliyatlar, ijtimoiy media va ilg'or qurollarning siyosiy jarayonlarga ta'siri. Identity siyosati va millatchilik harakatlarining kuchayishi.
M19	**Yangi ming yillikda Rossiya-AQSH-Xitoy munosabatlari rivoji va istiqbollari** SSSR parchalanishining dunyoning siyosiy xaritasiga va kuchlar balansiga keskin ta’siri. Mustabit tizimdan yangi mustaqil davlatlarga qolgan og‘ir meros. Rossiya-AQSh munosabatlari. Strategik manfaat va geosiyosiy yondashuvlar zidligi. O‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi omillar. Yadro qurollarini cheklash bo‘yicha 1972 yilgi bitimdan chekinish. Sharqiy Evropa, Kavkaz, Yaqin Sharq masalasidagi kelishmovchiliklar. Rossiya va Shimoliy Atlantika regioni bilan munosabatlar yangi bosqichda. Regionning tashqi savdo, ishlab chiqarish va harbiy strategik jihatdan ahamiyati. ShAR bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishda AQSh va Boltiqbo‘yi mamlakatlari omili.

	Rossiya va NATO munosabatlari. G‘arbning manfaatlari tizimida AQSh va Sharq Evropa masalasi. NATO ning Sharqqa tomon kengayishi. Potsdam konferentsiyasi bitimlarining barbod bo‘lishi. Kaliningrad masalasi. Kosovo va Abxaziya masalasi – Rossiya – Evrosiyo ekanligi ishora. Rossiya tashqi munosabatlari tizimida Osiyo tomon burilish. Rossiya-Xitoy munosabatlari ob’ektiv zaruriyat sifatida.
	4-Semestr Mashg’ulotlar shakli: ma’ruza (M) (26)
M1	**Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSH ning roli.** AQSh tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi. Jahon siyosatida etakchilik uchun kurash: Monro doktrinasi, Xey doktrinasi, Vilsonning tinchilik dasturi, Daues va Yung rejaliri, Lend-Liz haqidagi hujjat, Malshal rejasi, Trumen doktrinasi, NATO, SEATO. Kuch ishlatish siyosati va uning barbod bo‘lishi. «N500-75» dasturining mohiyati. Evrosiyo geostrategiyasi. AQSh geosiyosatida Rossiya. NATO –sirtmoq (Evropaga nisbatan), qapqon (Rossiya-EI munosabatlari uchun) va qalqon (AQSh manfaatlari uchun) sifatida. Yaqin Sharq masalasi. Kemp-Devid bitimi. Arab mamlakatlarining milliy birligiga qarshi kurash vositasi. AQSh ning O‘rta Osiyo, Kavkaz va Hinddagi manfaatlari. AQSh ning Xitoydagi geosiyosiy manfaatlari. AQSh-Yaponiya munosabatlari.
M2	**Xitoyning geostrategik siyosati va uning mohiyati** Xitoy-Rossiya, Xitoy-G‘arbiy Yevropa, Xitoy-AQSh munosabatlarining rivojlanish tarixi. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining spetsifik xususiyatlari. Xitoy-SSSR-G‘arbiy munosabatlarilagi mafkuraviy kelishmovchilik. Xitoyning hal etilmagan hududiy muammolari. Demografik vaziyat. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari. «Katta Xitoy» integratsiyasi - Xitoy, Tayvanь, Syangan, Aomen (Makao), Singapur). Xitoy geosiyosatining mohiyati. Mamlakatdagi milliy muammolar. Xitoy geosiyosiy maktabi (Zhongfaua gep) va uning xususiyatlari. Sun Szi “Harbiy san’at haqida traktat”. “Shan o’lkasi hukmdori kitobi”. Den Syaopin islohotlari. XXR iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari. Shanxay Forumining yuzaga kelishi va Xitoy geosiyosiy maktabi g’oyalarining ilgari surilishi. XXR- Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarining delimitatsiyasi va demarkatsiyasi. SHHTning tashkil etilishi. “Bir makon - bir yo’l” loyihasida Xitoy geosiyosiy g’oyalari. SHHT doirasida O’zbekiston Respublikasi faoliyati.
M3	**Yaponiyaning uzoq shardagi geosiyosati va ijtimoiy taraqqiyoti** Yaponiyaning jahon iqtisodiyoti va siyosiy maydonidagi tutgan mavqeidagi nomutanosibliklar. Tashqi siyosatda AQSh mavqeining ortishi. Rossiya-Yaponiya munosabatlarining rivojlanish tarixidan-Kuril muammosi. Rossiya-Yaponiya munosabatlarida «Uchinchi kuch» omili-Portsmut, Potsdam, Yalta bitimlari. Yaponiya iqtisodiyotida Kuril zahiralariga bo‘lgan talab. Orollarning

	Rossiya iqtisodiyoti va harbiy –geosiyosiy manfaatlarida tutgan o'rni. Yaponiya-Rossiya munosabatlarining yangi bosqichda rivojlanishi: 1) Shimoliy hudud masalasi; 2) iqtisodiy masalalar; 3) siyosiy, harbiy-geosiyosiy. Yaponiya- MDH mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar.
M4	**Yaqin sharq va Markaziy Osiyo mintaqaviy geosiyosiy voqelikda Turkiyaning roli** Usmoniy turklarning geosiyosiy qarashlari.Turkiya zamonaviy xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchilaridan. Turkiya Respublikasining asoschisi Otaturkning geosiyosiy qarashlari. M.K.Otaturk boshlagan islohotlarning asosiy maqsadi mamlakatni modernizatsiya qilish. Turkiya "sovuq urush" yillarida: geosiyosiy maqsadlar va nazariyalar. Zamonaviy Turkiyaning geosiyosiy nazariyalari va oqimlari.
M5	**Markaziy Osiyo va O'zbekistonda Yevropa Ittifoqining keng ko'lamli hamkorlik loyihalari.** «Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo» uchrashuvlari, «YEI – Markaziy Osiyo» konferensiyasi. 'zaro munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosi 15 ta hujjatdan iborat bo'lib, ular Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (SHHTB), O'zbekiston-Germaniya, O'zbekiston-Fransiya, O'zbekiston-Buyuk Britaniya munosabatlari.
M6	**«Yangi katta o'yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati** Markaziy Osiyo yangi siyosiy munosabatlar tizimida. Regionning tabiiy-geografik imkoniyatlari. Rossiya-Eron munosabatlari yangi bosqichda. Kaspiy muammosi. Kaspiy-Fors qo'ltig'i. Rossiya-Turkiya munosabatlari. O'rta Sharqda o'z ta'sir doirasini belgilashda tomonlarning imkoniyatlari. Iroq –Rossiya munosabatlari. Afg'oniston fojeasi. Barak Obama-«Yangi katta o'yin» kontseptsiyasining yangi ishtirokchisi. AQShning C5+1 dasturi. AQSh va MO davlatlari o'rtasidagi munosabat.
M7	**Heartland - Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan "geosiyosiy faol o'yinchilar" (Arab davlatlari, Eron, Hindiston, Pokiston) yondashuvlari** Markaziy Osiyo davlatlarining Yaqin Sharq davlatlari bilan hamkorliklari. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining joriy etilishi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari. "Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'lagi" (TRASEKA) dasturi. Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashining (SVMDA) faoliyati. Osiyoda Hamkorlik bo'yicha muloqotning asosiy vazifalari. Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik Assotsiatsiyasi (SAARK). Islom taraqqiyot banki. Turkmaniston, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston gaz quvuri loyihasi (TAPI). Etnik muammolar va ularning mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri. Ikki qutbli tizimning barham topishi va kuchlar nisbatidagi o'zgarishlar: EI, AQSh, Xitoy va Rossiya. Mustaqillikdan keyingi davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, transport-kommunikatsiyaviy, etnik, mavkuraviy muammolar. MO hududining tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va imkoniyatlari. MDH, EIH, GUAM faoliyatidagi ziddiyatlar. Atlantizm

	g'oyalarini amalga oshishida Kollingz dasturi. O'zbekiston geosiyosiy manfaatlari tizimida MOH ning tutgan o'rni.
M8	**Yangi ming yillikda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash muammolari** Markaziy Osiyo davlatlariga xavf solayotgan asosiy tahdidlar: suv resurslaridan foydalanish; atrof-muhit degradatsiyasi, millatlararo to'qnashuvlar,narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm i demografiya. Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatning namoyon bo'lish xususiyatlari. Suvning tanqisligi va sho'rlanganligi. Suv muammosining siyosiy tus olishi. Ittifoqdan qolgan og'ir meros. Milliy-hududiy chegaralash va uning okibatlari: Farg'ona va O'sh voqealari. O'zbekistonda milliy siyosatning asosiy tamoyillari. Afg'oniston - MO xavfsizligiga asosiy tahdid. MO xavfsizlikning ta'minlashda KSHTning tutgan o'rni. Integratsiya –muammolarning echimining asosiy omili sifatida.
M9	**Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategiyasi- xususiyatlari. Afg'oniston masalasi** Afg'oniston Markaziy Osiyoning "darvozasi" sifatida. Afg'onistoning milliy-etnik va geografik xususiyatlari. Afg'on transport koridori. Afg'onistondagi diniy vaziyat. Afg'on mujohidlarining Islomiy ittifoqi-7 va Afg'on mujohidlarining Islomiy ittifoqi-3. Sibgatulla Mujdadidiy boshchiligidagi utish xukumati va Burxoniddin Rabboniy prezidentligi davri. "Tolibon" harakatining yuzaga kelishi, ularning asosiy maqsad va vazifalari. "6+2" muloqot guruhi va "6+3" muloqot guruhi. Afg'oniston 2001 yil 11 sentabr voqealaridan so'ng. Afg'onistonda ISAF faoliyati. "Geosiyosiy faol o'yinchilar"ning Afgonistondagi manfaatlari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Afg'oniston vektorining tadriji.
M10	**Yangi dunyo tartibotida O'zbekiston: ko'p tomonlama hamkorlik, sterategiyalar, xavfsizlik, qonunchilik masalalari** O'zbekiston va MDH davlatlari o'rtasidagi geosiyosiy munosabatlar istiqbollari. ShHT ning tashkil etilishi ob'ektiv zaruriyat sifatida. Tashkilotning mintaqa va jahon siyosatini belgilashdagi ahamiyati. ShHT va Osiyo integratsiyasi masalalari. O'zbekistonning bu tizimdagi iqtisodiy va xavfsizlikni ta'min etish bobidagi manfaatlari. ShHT va AQSh ning geosiyosiy manfaatlari. «Katta Markaziy Osiyo» -ShHT. ShHT ning kelgusidagi maqomi bilan bog'liq muammolar. Yangi ming yillikda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash vazifalari. Avg'oniston muammosi. O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi rasmiy-huquqiy asoslar. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi qonun. "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi", "O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi". "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka

	tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ilgari surilgan asosiy g'oyalar. O'zbekiston Respublikasining xalqaro, mintaqaviy va milliy xavfsizlikni taminlashda qaratilgan tashabbuslari. Transchegaraviy tahdidlar.Milliy manfaatning asosiy tarkibiy qismlari, shakllari va ularni amalga oshirish usullari
M11	**Markaziy Osiyo geosiyosiy muammolari yechimida Yangi O'zbekiston siyosatining ahamiyati** Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi chegara muammolarining yechimi va unda O'zbekistonning roli. Qirg'iziston va O'zbekiston chegara muammolarining yechimi,Qozog'iston va O'zbekiston chegara masalalari ijobiy o'zgarishlar. "O'zbekiston Reslublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligini takomillashtirish va tashqi siyosat borasida yangicha yondashuvlarning ilgari sulilishi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlar va hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi. Xalqaro tashkilotlar doirasida faoliyatning ustuvor yo'nalishlari. Parlament diplomatiyasi va raqamli diplomatiyaning amalga oshirilishi. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining qarashlari. Insoniyatga xavf solayotgan tahdidlar: terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy muammolar.
M12	**Global geosiyosiy, geoiqtisodiy tuzilmalar va xalqaro munosabatlar** Global geosiyosiy tuzulmasining shakllanishi: davrlar va modellar. Zamonaviy jahon sistemasi va uning geosiyosiy voqeligi. Zamonaviy geosiyosatning tuzilishi va undagi geoiqtisodiyotning o'rni
M13	**Global geosiyosiy, geoiqtisodiy tuzilmalar va xalqaro munosabatlar** Global geosiyosiy tuzulmasining shakllanishi: davrlar va modellar. Zamonaviy jahon sistemasi va uning geosiyosiy voqeligi. Zamonaviy geosiyosatning tuzilishi va undagi geoiqtisodiyotning o'rni
	III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti **3-semestr.Geosiyosat III. (40)**
S1	Geosiyosatga kirish
S2	Hokimiyatning taqsimlanishi: siyosiy xaritaning tuzilishi va rivojlanishi
S3	Jahon siyosatida tahlil qilish sohalar
S4	Jahon siyosatining geografik belgilovchilari
S5	Geosiyosiy tizimlar
S6	Geografiya: hokimiyat ambitsiyalarining salohiyati va chegaralari
S7	Jahon tartibi geosiyosatining dinamikasi (xaritalarda)
S8	Kuch proyeksiyasi (J. Xerbst nazariyasi)
S9	Jahon siyosati va texnopolitika davr
S10	"Xaos" geopolitikasi: hokimiyatning tarqalishi va siyosiy xaritaning parchalanishi
S11	XXR geosiyosiy maktabi
S12	Heartland - Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan "geosiyosiy faol o'yinchilar" (Arab davlatlari, Eron, Hindiston, Pokiston) yondashuvlari
S13	Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategiyasi- xususiyatlari. Afg'oniston masalasi
S14	O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi rasmiy-huquqiy asoslar
S15	Zamonaviy bosqichda O'zbekistonnig Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati
S16	Jahon tartibi geosiyosatining dinamikasi (xaritalarda)
S17	Kuch proyeksiyasi (J. Xerbst nazariyasi)
S18	Jahon siyosati va texnopolitika davri
S19	Yangi ming yillikda rossiya-aqsh-xitoy munosabatlari rivoji va istiqbollari
S120	Geosiyosiy munosabatlar tizimida aqsh ning roli.
	IV. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti **4-semestr. GeosiyosatIV. (26)**
S1	Xitoyning geostrategik siyosati va uning mohiyati
S2	Yaponiyaning uzoq shardagi geosiyosati va ijtimoiy taraqqiyoti
S3	Yaqin sharq va Markaziy Osiyo mintaqaviy geosiyosiy voqelikda Turkiyaning roli
S4	«Yangi katta o'yin» kontseptsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati
S5	Heartland - Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan "geosiyosiy faol o'yinchilar" (Arab davlatlari, Eron, Hindiston, Pokiston) yondashuvlari
S6	Yangi ming yillikda markaziy osiyoda xavfsizlikni ta'minlash muammolari
S7	Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategiyasi- xususiyatlari. Afg'oniston masalasi
S8	O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi rasmiy-huquqiy asoslar
S9	Yangi dunyo tartibotida o'zbekiston: ko'p tomonlama hamkorlik, sterategiyalar, xavfsizlik masalalari
S10	Markaziy Osiyo geosiyosiy muammolari yechimida Yangi O'zbekiston siyosatining ahamiyati
S11	Markaziy Osiyo geosiyosiy muammolari yechimida Yangi O'zbekiston siyosatining ahamiyati
S12	Global geosiyosiy, geoiqtisodiy tuzilmalar va xalqaro munosabatlar
S13	Global geosiyosiy, geoiqtisodiy tuzilmalar va xalqaro munosabatlar

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:
"Geosiyosat" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular vamustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Klassik geosiyosatning asosiy g'oyalari va tamoyillari
2.	Globallashuv jarayoning xalqaro munosabatlarga ta'siri
3.	Markaziy Osiyo mintaqaviy siyosatida xalqaro tashkilotlarning o'rni
4.	Qudratli davlatlarning (Rossiya, AQSh, YEI davlatlari, XXR) Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan yondashuvlari
5.	Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan "geosiyosiy faol
6.	o'yinchilar" (Arab davlatlari, Eron, Hindiston, Pokiston) yondashuvlari
7.	Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategik xususiyatlari.
8.	Afg'onistondagi siyosiy vaziyat
9.	O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi rasmiy-huquqiy asoslar
10.	"Geosiyosat" fani predmeti, ob'ekti va manbalari
11.	Fanning kategoriyalari, genezisi, metodi va paradigmasi
12.	Fan tarixi va uning hozirgi davrdagi rivoji
13.	Klassik geosiyosatning asosiy g'oyalari va tamoyillari
14.	Asosiy kategoriyalar: hudud, xalq (demografik vaziyat) tabiiy boyliklar, siyosiy tizimlar
15.	Globallashuv jarayoning xalqaro munosabatlarga ta'siri
16.	Geosiyosiy g'oyalarni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning o'rni
17.	Hozirgi davrda Transmilliy korporatsiyalarning geosiyosiy jarayonlarga ta'siri
18.	Rossiya Federatsiyasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari
19.	AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlarining geosiyosiy maktablari
20.	XXR geosiyosiy maktabi
21.	Heartland - Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan "geosiyosiy faol o'yinchilar" (Arab davlatlari, Eron, Hindiston, Pokiston) yondashuvlari
22.	Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategik xususiyatlari. Afg'oniston masalasi
23.	O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi rasmiy-huquqiy asoslar
24.	Zamonaviy bosqichda O'zbekistonnig Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati.
25.	O'zbekistonda "Geosiyosat" fanining rivojlanish masalalari.
26.	Geosiyosiy holatning milliy manfaatlar shakllanishiga ta'siri.
27.	Xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlarning
28.	o'rni.
29.	O'zbekiston Respublikasining MDH, YevroIttifoq, KXShTga nisbatan yondashuvlari.
30.	Xalqaro tashkilotlar doirasida faoliyatning ustuvor yo'nalishlari "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ilgari surilgan asosiy g'oyalar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

"Geosiyosat"fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiyaning mazmuni, mohiyati, tasnifini, uning rivojlanishi, nazariyalari bir-biri bilan bog'liq jihatlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; siyosiy madaniyatning xulq-atvor jihati: shakllari va stereotiplar, siyosiy mafkura hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi omil ekanligini, liberalizm va neoliberalizm, konservatizm va neokonservatizm, sotsial demokratiyaga doir xususiyatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi; rivojlangan mamlakatlar siyosiy madaniyati, mafkurasini siyosiy tahlil qila oladi, hokimiyat va davlatning kelib chiqishi, antropologiyasi haqidagi bilimlar asosida mushohada yurita olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.Ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya faoliyati ham keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - **"Geosiyosat"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***

	- Talaba **"Geosiyosat"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishikerak***. - Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishikerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

	Asosiy adabiyotlar
A1.	1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. — 488 b, 2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: O'zbekiston, 2017.-592 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. jild. - T.: O'zbekiston, 2020. - 452 b 4. Samadov A.R. Geosiyosat asoslari. O'quv qo'llanma. 2021. Samarqand, 320 b. 5. Жуманиёзов Х. С, Нигманова У. Б. Геосиёсат асослари (услубий кулланма). -
	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar
Q1.	Buzan Barry and Ole Waever, Regions and Powers. The Structure of International Security. -Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
Q2.	Barry Buzan. Security: a New Framework for Analysis /by Barry Buzan, Ole Waever, and Jaap de Wilde. —London: Lynne Rienner Publishers, 1998. - 237 p.
Q3.	Lake, David A., and Patrick M. Morgan. The New Regionalism in Security Affairs / In.: Regional Orders: Building Security in a New World. - University Park: Penn State University press. 1997.
Q4.	Arnold Wolfers. «National Security» as an Ambiguous Symbol // *Political Science Quarterly,* No 4, Vol LXVIL December 1952, pp. 481- 502.
Q5.	Бабурин С.Н. Российский путь: становление российской геополитики накануне XXI в. -М.: АНКО, 1995.
Q6.	Бжезинский З. Великая шахматная доска. -М.: Международные отношения, 1998.
	Axborot manbalari:
A1	www.gov.uz
A2	www.president.uz
A3	www.ziyonet.uz
A4	www.manaviyat.gov.uz
8.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" _____ dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
9.	**Fan/modul uchun mas'ul: Samadov A.R.** – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi professori
10.	**Taqrizchilar:** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi dotsenti (ichki) L.Jo'rayev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti bo'limi boshlig'i, siyosiy fanlar doktori (DSc) (tashqi) Musayev M

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI • 1-O'QUV USLUBIY BOSHQARMA

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Geosiyosat" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

"Geosiyosat" fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusiyaviy tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar bilan tanishtirish ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi – geosiyosiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari ya'ni: qadimgi dunyoning turli mintaqalarida geosiyosiy fikrning kelib chiqishi va rivojlanishi; o'rta asrlar va uyg'onish davridagi siyosiy tafakkur rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, buyuk mutafakkirlarning qarashlarini yoritish; yangi zamondagi siyosiy ta'limotlarning ijtimoiy hodisalarni bilishdagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirish; eng yangi zamondagi siyosiy qarashlar, maktablar qaror topishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Talabalarning istiqbolda davlat va siyosat sohalarida tadqiqotlarni rivojlantirish va umumjahon geosiyosiy tamoyillarini baholay olish qobiliyatini egallashi uchun jahon geosiyosiy ta'limotini rivojlanishiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning vakillari tomonidan ishlab chiqilgan siyosatga oid nazariyalarni mustaqil ravishda tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarni fanni rivojlantirishga oid tahlil qilish va tizimli yondashuvga o'rgatish.tafakkur tarzining ko'rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Yaratilgan fan dasturi oliy ta'lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o'tilagan ""**Geosiyosat**" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

"**Geosiyosat**" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi
Dotsenti (DSc) **L.Jo'rayev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasining "Geosiyosat" faniga tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

"Geosiyosat" fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusiyaviy tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar bilan tanishtirish ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi – jahon siyosiy fikrining paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari ya'ni: qadimgi dunyoning turli mintaqalarida siyosiy fikrning kelib chiqishi va rivojlanishi; o'rta asrlar va uyg'onish davridagi siyosiy tafakkur rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, buyuk mutafakkirlarning qarashlarini yoritish; yangi zamondagi siyosiy ta'limotlarning ijtimoiy hodisalarni bilishdagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirish; eng yangi zamondagi siyosiy qarashlar, maktablar qaror topishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Talabalar istiqbolda geosiyosatning mazmun-mohiyati, uslublari, vazifalari bilan tanishtirish, geosiyosiy jarayonlarning mohiyati, tarkibi, qonuniyatlarini ko'rsatib berish, muayyan geografik makon ustidan nazorat o'rnatishning turlari, shakllari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ko'rsatib bera oladilar. Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan geosiyosiy ta'limotlarning tadrijini ko'rsatib berish, yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan yondashuvlarini ochib berish, geosiyosiy jarayonlarning amalga oshirilishida axborot-mafkuraviy xurujlarning xususiyatlari haqida ma'lumotni qayta ishlab, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

"**Geosiyosat**" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar boshlig'i, siyosiy fanlari
M.Musayev